



PERSONAJ NUTQIDAGI FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASIDA MADANIY OMILLAR

Nazrullayeva Gulnoza Karimbek qizi

*PhD Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi katta o'qituvchisi,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O'zbekiston.*

Tel: 99 828 53 46; e-mail: nazrullayevag@gmail.com

Annotatsiya: *Badiiy asarlarda personaj nutqini o'rganish azaldan fanning muam-moli masalalaridan bo'lib kelgan. Bu borada fanda, xususan, o'zbek va rus tarjima-shunosligida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan, yirik ilmiy asarlar yaratilgan. Tarjimada yo'l qo'yilgan ayrim xato va noaniqliklarning yo'qligi tarjima sifatining yuksakligidan dalolat bera olmaganidek, ularning mavjudligi ham tarjimaning sifatsiz, talabga javob bera olmaydigan ekanini bildirmaydi.*

Tayanch so'zlar: *frazeologiya, milliy kolorit, lingvomadaniy, tarjima, antropo-sentrik.*

Аннотация: *Изучение речи персонажей в художественной литературе давно ста-ло проблемой в науке. В этой области проведено много исследований, особенно в узбекском и русском переводе, созданы крупные научные труды. Как отсутствие не-которых ошибок и неточностей в переводе не означает, что качество перевода вы-сокое, так и их наличие не означает, что перевод некачественный и не соответству-ет требованиям.*

Ключевые слова: *фразеология, национальный колорит, лингвокультуроло-гия, перевод, антропоцентричность.*

Annotation: *The study of character speech in fiction has long been a problem in science. There has been a lot of research in this area, especially in Uzbek and Russian translation, and major scientific works have been created. Just as the absence of some errors and inaccuracies in the translation does not mean that the quality of the translation is high, their presence does not mean that the translation is of poor quality and does not meet the requirements.*

Keywords: *phraseology, national color, linguocultural, translation, anthropo-centric.*

Asosiy qism: Frazeologiya – tilshunoslikning muhim sohalaridan biridir. Uni keng va tor ma'noda tushunish mumkin. U keng ma'noda, turg'un so'z birikmalarining barcha turlari, shu jumladan, maqol, metal va shunga o'xshash ko'chma ma'noli birikmalarni anglatadi. Shuningdek, frazeologiya deganda so'zlarning semantik bog'lanishi ham anglashiladi. Frazeologiya tor ma'noda qaralganda, ba'zan uning qamrovi toraytirib yuboriladi va faqat idiomalar ko'zda tutiladi¹⁴.

¹⁴ X.X.Хамидов. Турк фразеологияси масалалари. / Монография. – Т.: “BAYOZ”, 2019. – 15 Б.



“Asarda personajning mansabi, egallab turgan lavozimi ta’riflanar ekan, uning tashqi ko‘rinishiga alohida urg‘u beriladi. Yozuvchining so‘z tanlash mahorati uning portret yaratish san’atida ham namoyon bo‘ladi. “Portret yozuvchining shaxsiy uslubi, mahorati va maqsadiga bog‘liq holda turlicha darajada berilishi mumkin. Masalan, ba’zan shaxsning tashqi qiyofasi va xatti-harakatini juda batafsil tasvirlansa, ba’zan obrazning yo tashqi qiyofasiga yoki uning xatti-harakatiga oid muhim bir detalni tasvirlash orqali ham berilishi mumkin” – deyiladi adabiyotshunoslik atamalarining izohli lug‘atida¹⁵. Demak, ana shunday san’atni o‘zga tilda qayta yaratish vazifasi tarjimon zimmasiga mas’uliyat yuklaydi”¹⁶.

Ushbu maqolada hind yozuvchisi Krishan Chandarning “Dadar ko‘prigidagi bolalar”¹⁷ hikoyasi tarjimasi asosiy material sifatida tanlandi. Ushbu hikoya o‘zbek tiliga serqirra va mohir tarjimon Ansoriddin Ibrohimov tomonidan tarjima qilgan. Hikoyada muhim o‘rin tutgan frazeologik birliklar mutarjim tomonidan katta mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Frazeologizmlar ustida olib borilgan ilmiy ish jarayonida turg‘un birikmalar sifatida har qanday frazeologik birikma, ya’ni maqol, hikmatli so‘z yoki aforizmlarni emas, faqat frazeologik birliklarni olishga harakat qildik va ularning asliyatdagi ma’nosi, shakli, badiiy tarjimada berilgan muqobillarini qiyoslab, ularni uch guruhga bo‘lib tahlil qilishga harakat qildik: 1. Asliyat bilan tarjima variantidagi shakli va ma’nosi bir-biriga to‘la mos keladigan frazeologizmlar; 2. Asliyat va tarjima matnida shaklan farqli, lekin ma’no jihatdan mos keladigan muqobil frazeologizmlar; 3. Asliyatda erkin so‘z birikmasi bo‘lib, tarjimada ibora yoki maqol shaklida berilgan frazeologik birliklar. Misollarga murojaat qilamiz:

“और तुम जो यह जुआ¹⁸ खेल रहे हो ,यह दारू पी रहे हो ,यह मच्छी खा रहे हो ,यह किसकी मेहनत की कमाई है?” यकायक कोली गुस्से से अपने पति की ओर देखकर बोली ¹⁹। Tarjimasi: - Sen bu yerda qimor o‘ynab o‘tiribsan, zahringga bo‘za ichayapsan, baliq yeyapsan – bular bari kimning mehnatiga kelgan? – birdaniga Ko‘liy jahl bilan eriga tashlanib qoldi-ku ²⁰. Tahlil: Tarjimon “Zahringga ichayapsan” frazeologizmini ishlatgan. Asliyatda esa “Bu ichimlikni ichayapsan” deb oddiy gap bilan berilgan. Tarjimon ushbu jumla ma’nosini kesatuq yo‘li bilan kuchaytirib bergan. Asliyatda esa bunday emas.

¹⁵ Хотамов Н., Саримсоков Б. “Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати”. – Т., 1983. 252 Б.

¹⁶Hamidov X. “Adolat manzili” romanining turkcha tarjimasidagi personajlar portreti. Sharq mash’ali/ TDSHU ilmiy- uslubiy, ma’rifiy jurnali. 2020-yil, 4-soni. 100-B.

¹⁷ कृष्ण चन्द्रा। दादर पुले के बच्चे। नई दिल्ली – 2013। - प। 180।

¹⁸Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. – М.: Энциклопедия, 1972. – С. 615.

¹⁹कृष्ण चन्द्रा। दादर पुले के बच्चे। नई दिल्ली – 2013। - प। 180।

²⁰Кришан Ч. Дадар кўпригидаги болалар. Қисса (ҳиндий тилидан Ансориддин Иброҳимов таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 1999. - № 2. – 208 б.

कुली ,पानवाले ,फलवाले ,टैक्सीवाले और प्राइवेट गाड़ीवाले सब-के-सब निराश होकर अपना-सा मुँह लेकर रह गए ²¹। Tarjimasi: Hamma - ponfurushlar, mevafurushlar, taksichilar va kirakash haydovchilar – barchalarining tarvuzlari qo‘ltig‘idan tushib, mung‘ayib qolishdi ²². Tahlil: Tarjimada asliyatdagi निराश होकर (xafa bo‘lib) birikmasini Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib iborasi vositasida mohirona o‘g‘irgan. Tarjimon asliyatdagi gapning bo‘yoqdorligini oshirmoqchi bo‘lgan va o‘zbek o‘quvchisiga o‘qish jarayonida tarjima asardan zavq olishlari uchun shunday tarjima qilgan desak to‘g‘ri bo‘ladi.

शर्म नहीं आती। मुसटण्डी। जवान-जहान लाढ़ा-सी होकर भीख माँगती है। जा कोई घर कर ले ²³। Tarjimasi: - Uyalmaisanmi! Yaramas! To‘rt muchasi soppa-sog‘, yosh bo‘la turib, sadaqa tilanadi-ya! Bor, erga tegib ol²⁴. Tahlil: जवान-जहान²⁵ लाढ़ा-सी होकर भीख माँगती²⁶ है gapini tarjimon “To‘rt muchasi soppa-sog‘, yosh bo‘la turib, sadaqa tilanadi-ya!” deya o‘zbek tiliga o‘g‘irgan. Bu yerda tarjimon qisqa gapni uzunroq qilib, hamda fraza qo‘shib tarjima qilgan. Tarjimon “To‘rt muchasi soppa-sog‘” frazasini kontekstdan kelib chiqqan holda o‘zidan qo‘shadi. जा कोई घर कर ले। (Bor bironta uyga joylashvol) jumlasini tarjimon kontekstdan kelib chiqqan holda Bor, erga tegib ol deya o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

आज उसे क्या हो गया ?यकायक लाची के मन में खयाल आया-यह कमबख्त मेरे आने से पहले ही दुकान बन्द करके भाग जाना चाहता है। ठीक हुआ मैंने इस भागने से पहले पकड़ लिया ²⁷। Tarjimasi: Bugun unga nima bo‘ldi ekan? Birdan La‘chiyning ko‘ngliga bir gap keldi: bu juvonmarg men kelishimdan oldinroq quyonning rasmini chizib qolmoqchi bo‘lgan. Ha, mendan qochib qayoqqa borarding, shovvoz²⁸! Tahlil: Bu jumlada Lachi do‘konga yetib kelganida, Madxo‘ do‘konini berkitmoqda edi. Lachi sal narida turib, uning do‘konni berkitishiga qarab turdi va shunda u Madxo‘ qochib ketyapti deb o‘yladi. Tarjimon qochib ketish sahnasini “quyonning rasmini chizib qolmoqchi” frazeologiyasi bilan qo‘llagan. Asliyatda hech qanday frazeologizm berilmagan. Mutarjim kontekstdan kelib chiqqan holda to‘g‘ri frazeologiya ishlatgan desak bo‘ladi. Ushbu gapga tarjimon o‘zidan “shovvoz” so‘zini kiritadi. Shovvoz degani har

²¹ कृष्ण चन्द्रा दादर पुले के बच्चे। नई दिल्ली – 2013। - पृ 180।

²² Кришан Ч. Дадар кўпригидаги болалар. Қисса (ҳиндий тилидан Ансориддин Иброҳимов таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 1999. - № 2. – 208 б.

²³ कृष्ण चन्द्रा दादर पुले के बच्चे। नई दिल्ली – 2013। - पृ 180।

²⁴ Кришан Ч. Дадар кўпригидаги болалар. Қисса (ҳиндий тилидан Ансориддин Иброҳимов таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 1999. - № 2. – 208 б.

²⁵ Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. – М.: Энциклопедия, 1972. – С. 595.

²⁶ То же призывание. – С. 303.

²⁷ कृष्ण चन्द्रा दादर पुले के बच्चे। नई दिल्ली – 2013। - पृ 180।

²⁸ Кришан Ч. Дадар кўпригидаги болалар. Қисса (ҳиндий тилидан Ансориддин Иброҳимов таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т.: Шарқ, 1999. - № 2. – 208 б.



qanday ishni eplay oladigan, qoyil qiladigan; azamat insonga aytiladi. Bu yerda tarjimon kesatu ohangida qo'shgan desak bo'ladi.

Tarjimada shunday jihatlarni ham ko'rish mumkinki, tarjimon erkin birikmani ibora shaklida, iborani esa, ba'zan erkin birikma yoki so'z shaklida o'g'irgan, lekin asliyatga putur yetmagan. Badiiy tarjimada iboralarning berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday til birliklarining tarjimada qayta yaratilishi tarjimashunoslik fanining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan. Zero, bir xalqning tafakkuri, madaniyati, mentaliteti o'z ifodasini topgan turg'un iboralar milliy o'ziga xosligi bilan tarjimoni boyituvchi, ayni zamonda uni qiyinlashtiruvchi omillardan sanaladi.

Hind madaniyatining o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatları, liboslari, cholg'u asboblari, shu bilan birga taqinchoqlari ham mavjud. Shunday buyum yoki narsa borki, u faqat hind madaniyatigagina xosdir. Shulardan biri churi. Churi hind ayollarining bilagini bezab turuvchi shoda-shoda taqinchoqdir. Churining turli xildagi turlari mavjud. Yosh qizlar va yosh juvonlar kiygan liboslariga moslab churilarni saralab oladilar. Qolaversa, hind jamiyatida turmush qurgan ayollar o'zlariga alohida oro berib, turli-tuman taqinchoqlar bilan bezanib oladilar. Mana shu bezaklar ichida albatta churilar ham mavjud. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, eri va fot etgan hind ayoli hech qanday pardoz-andoz ham qilmaydi, taqinchoqlar ham taqmaydi. Hind madaniyatida eri vafot etgan ayolning taqinchoqlarini yechish marosimi ham bor. Shu boisdan ham hindlarda चूड़ियां तोड़ना ya'ni so'zma-so'z talqin qiladigan bo'lsak, churilarni sindirmoq. Mazkur iboraning sharhi quyidagicha: पति के मर जाने पर स्त्री का अपनी चूड़ियां उतारना या तोड़ना – erining o'limi tufayli ayol o'z churilarini uloqtirdi yoki sindirdi.

गोविन्द की मृत्यु हो जाने पर उसी स्त्री ने अपनी चूड़ियां तोड़ लीं²⁹। Tarjimasi: Govindning vafotidan so'ng uning xotini aza ochdi³⁰. Tahlil: Mazkur gapning tarjimasida hech qanday churi so'zi mavjud emas. Biroq tarjimada asliyatdagi ma'no to'liq yoritib berilgan. Boisi hind jamiyatida eri vafot etgan ayol aza ochsa pardoz-andozu, hatto sevimli taqinchoq va churilardan ham voz kechadi.

Jamiyatda ayrim erkaklar ham borki, ularning qiladigan ishi, aytadigan so'zi umuman, fe'l-atvori ba'zida erish tuyulib, ayollarga xos hatti-harakatlarni eslatadi. Mana shunday vaziyatda hindlar yana churi bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklarni qo'llaydilar. चूड़ियां पहनना ya'ni so'zma-so'z talqini churi taqmoq. Masalan: स्त्रियों का काम करना, स्त्री का वेश धारण करना। जब तुम इतना भी नहीं कर सकते तो चूड़ियां पहन लो³¹। Tarjimasi: Bordiyu shuni ham qila olmasang, churi taqib ol³². Tahlil: Ushbu

²⁹ प्रेमचंद. गृह-दाह. इलाहाबाद. 1968. 10. पृ.

³⁰ Премчанд. Бир келин ҳикояси // Хонадоннинг барбод бўлиши. (Амир Файзулла таржимаси) – Т.: Адабиёт ва санъат, 1973. – Б. 9.

³¹ प्रेमचंद. बड़े भाई साहब. इलाहाबाद. 1968. 73. पृ.

³² Премчанд. Бир келин ҳикояси // Ўғиллари бор бева. (Амир Файзулла таржимаси) – Т.: Адабиёт ва санъат, 1973. – Б. 77.

misoldagi iborani bir ishga qodir bo'la olmay, og'zidagi oshini oldirib o'tiradigan ayrim jur'atsiz erkaklarga nisbatan qo'llashadi.

यदि इतिफाक से सत्री के मस्तक का सिंदूर धुल गया तब तो उसके लिए संसार ही नष्ट हो गया। Tarjimasi: Bordiyu kutilmaganda ayolning manglayidagi sindur yuvilsa, uning uchun dunyo tor bo'lib ko'rinadi. Tahlil: Mazkur keltirilgan misolda hindularning milliy xos so'zi सिंदूर – sindur ishtirokidagi frazeologizm aks etgan. Sindur – bu turmushga chiqqan hindu ayollarining manglayiga surtiladigan qizil upa. Hindu ayollari har tongda erining sog'-omon yurishini niyat qilib, o'z manglayiga sindur qo'yadilar. Manglayiga sindur surish turmushga chiqqan har bir hindu ayoli amal qilishi zarur bo'lgan vazifadir. Ushbu frazeologizmning mazmuni huddi shu xususida. सिंदूर धुल जाना frazeologizmi – tul, ya'ni beva bo'lib qolish mazmunini ifodalaydi. Ushbu o'rinda tarjima kalka usulida amalga oshirilgan.

Yegulik nomlari bilan bog'liq frazeologizmlar. Dunyoda ko'plab millat va elatlar borki, ularni bir-biridan farqlab turuvchi tashqi ko'rinishi, tili, liboslari, cholg'u asboblari, uy-ro'zg'or biyimlari, o'lchov birliklari bilan bir qatorda taom nomlari ham mavjud. Tarjima jarayonida taom nomlarining ishtirok etishi tarjimon uchun yana bir yechimini topishi kerak bo'lgan masala hisoblanadi. Ammo taom nomlarining frazeologizmlarda ifodalanishi esa tarjimonni ikki karra mashaqqat chekishiga undaydi.

Laddu – hindlarning yumaloq shakldagi mazali shirinligi hisoblanadi. Hindlar hayotida biron xursandchilik, shodiyona va marosimlarda sevimli yegulik sifatida dasturxonga tortiladi. Qolaversa, hindlar kundalik turmushda biron ko'ngilga xush yoquvchi xushxabarni eshitganda yoki uzoq manzildan kelgan o'z yaqinlarini qarshi olayotganlarida ham bir-birlarini laddu bilan siylashadi. Demak, laddu baxt, shodlik, quvonch va saodatning ramziy belgisidir.

विवाह का विचार आते ही उसके मन में लड्डू फूटने लगे। बेचारा तरह-तरह की कल्पनाएं करने लगा कि उसके घर में एक प्यारी-सी दुल्हन होगी, जो उसके लिए सुबह-शाम खाना बनाया करेगी।³³ Tarjimasi: Uylanish fikri ko'ngliga keldiyu, qalbida quvonch paydo bo'ldi. U o'z uyida bir sevimli yori bo'lishini, ertayu kech lazzatli taomlar tayyorlab berishini xayol qila boshladi. Tahlil: लड्डू फूटना iborasi milliylikni saqlagan holda tarjima qilinmagan. Asosiy e'tibor mazmunga qaratilgan. मन में लड्डू फूटने लगे jumlasini qalbida quvonch paydo bo'ldi deb tarjima qilingan. Chunki kambag'al asar qahramonining uylanish to'g'risidagi o'y fikrlari unga oz bo'lsa-da quvonch bag'ishlab shodlik ulashadi.

Shodlik va quvonchdan ba'zida o'zini bilmagan tarzda qo'llarini yuqoriga ko'tarib yuborgan holatda ushbu ibora qo'llaniladi.

³³ जातक कथाएं. एक रुपये की करामात. नई दिल्ली. 2002. 34 पृ



युद्ध में राजपूतों के दोनों हाथों में लड़ड़ रहते हैं। यदि शत्रुओं को मार भगाया, तो विजय श्री और यश की प्राप्ति हुई, और यदि वैरियों के हाथों मारे गए तो स्वर्ग मिला।³⁴ Tarjimasi: Rajputlar jangdagi g'alabasidan shodlanishdi. Shatrularni quvib chiqarib, g'alaba va buyuklikni qo'lga kiritishdi. Tahlil: Guvohi bo'lganingizdek, tarjimada hech qanday laddu so'zi yo'q. दोनों हाथों में लड़ड़ होना iborasini so'zma-so'z tahlil qiladigan bo'lsak, ikki qo'llarida laddu bo'lmoq. Ammo tarjimada ushbu iboraning mazmunigina aks etgan. Chunki o'zbek kitobxonlari uchun ikki qo'lida laddularning bor yoki yoq bo'lishi baxt yoki shodlik mazmunini ifodalaymaydi. To'g'ri, tarjima qilish jarayonida iboraning hind milliy koloritini ifodalovchi hech bir jihat saqlanib qolgan emas, ammo mazmun va mohiyat e'tiborga olingan holda kompensatsiyadan foydalangan, xolos.

“Hindiycha-o'zbekcha, o'zbekcha-hindiycha iboralar lug'ati”³⁵ da laddu milliy realiyasi bilan लड़ड़ मिलना hamda मन के लड़ड़ फोड़ना iboralarini uchratishimiz mumkin. Unda लड़ड़ मिलना – foyda keltirmoq, मन के लड़ड़ फोड़ना – ich-ichidan quvonmoq, shodlanmoq deb keltirilgan. Demak, laddu bilan bog'liq frazeologizmlar shodlik, quvonchni anglatib keladi.

घर में भूनी भांग नहीं, उसपर इतना घमंड। Tarjimasi: Uyda yeyishga hech narsa yo'q, shunga qaramay mag'rur. Tahlil: भूनी भांग नहीं - frazeologizmidagi भांग so'zi ichimlik nomi bo'lib, u Hindistonning o'ziga xos ichimligi sanaladi. Bu ichimlik kayfni oshirib, mast qiladi. भांग past tabaqadan tortib to yuqori tabaqa vakillari ham iste'mol qiladigan va topilishi oson narsa. Shu boisdan ham, uyda hattoki भांग ichimligining bo'lmasligi judda ham nochorlikni, kambag'allikni bildiradi.

तुम्हारी व्यंग्यपूर्ण बातें सुनकर उसका दिल कबाब हो गया। Tarjimasi: Istehzoli gaplaringni eshitaveib, uni ko'ngli og'ridi. Tahlil: Hindlardagi कबाब o'zbekcha kabobga juda o'xshash. दिल कबाब होना frazeologizmida ko'ngilni, qalbni huddi kabob singari qiyma-qiyma, ya'ni pora-pora bo'lib ketishini aks ettiradi. Tarjimon ushbu gapni ko'ngli og'ridi deb o'g'irgan. Boisi, doimo kimningdir mazaxli, istehzoli gaplarini eshitaverish odamning ko'nglini birmuncha qayg'uga solishi turgan gap.

Xulosa: Frazeologik birliklarni to'g'ri tarjima qilishning tarjimonlar uchun eng murakkab tomonlaridan biri shundan iboratki, ko'pchilik frazeologizmlar muayyan bir xalq urf-odatini, madaniyatini, psixologiyasi, diniy qarashlari bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun tarjimon biron asarni tarjima qilar ekan, o'sha xalq hayotini, urf-odatlarini, milliy madaniyatini va asliyadagi tilning frazeologik boyligining tabiatini yaxshi his etishi, bilishi, keyin o'z tili frazeologik boyligi bilan yaxshi tanish bo'lgani holda, ikki til iboralarini bir-biri bilan taqqoslashi, ular o'rtasidagi o'xshash va bir-biridan farqli tomonlarini yaxshi o'zlashtirib olishi kerak.

³⁴ हरिवंश राय शर्मा. साहित्यिक मुहावरा-लोकोक्ति कोश. दिल्ली. 1981. 177 पृ.

³⁵ Xodjajeva N. Hindiycha-o'zbekcha, o'zbekcha-hindiycha iboralar lug'ati. T.: ToshDSHI, 2015. – B. 185.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanova Sh. Tarjimonlik faoliyatining lingvomadaniy aspektlari. – T.: ToshDSHI, 2014.
2. Hamidov X. “Adolat manzili” romanining turkcha tarjimasidagi personajlar portreti. Sharq mash’ali/ TDSHU ilmiy-uslubiy, ma’rifiy jurnali. 2020-yil, 4-soni.
3. Xodjayeva N. Hindiycha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-hindiycha iboralar lug‘ati. T.: ToshDSHI, 2015.
4. Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. – М., 1972.
5. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005.
6. Премчанд. Бир келин ҳикояси // Хонадоннинг барбод бўлиши. (Амир Файзулла таржимаси) – Т.: Адабиёт ва санъат, 1973.
7. Х.Х.Ҳамидов. Турк фразеологияси масалалари./ Монография. – Т.: “BAYOZ”, 2019.
8. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. “Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати”. – Т., 1983.
9. प्रेमचंद. गृह-दाह. इलाहाबाद. 1968.
10. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1996.
11. जातक कथाएं. एक रूपये की करामात. नई दिल्ली. 2002.
12. हरिवंश राय शर्मा. साहित्यिक मुहावरा-लोकोक्ति कोश. दिल्ली. 1981.